Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining 07.01.2008-yildagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi 139-son Qonunining 7-moddasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu qonun hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'lishi hamda davlat tomonidan kafolatlanishi o'z aksini topgan. [11; 7-m.] Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 4-moddasida O'zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasida ekani, onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovorligi ta'kidlangan. [10; 4-m.] Bu ham davlatimiz tomonidan o'zbek oilalarga bo'lgan qonunlarda mustahkamlangan huquqlar va erkinliklarni ta'minlashining konstitutsiyadagi huquqiy kafolatidir. Davlatimiz tomonidan himoyaga bo'lgan huquq to'liq ta'minlanib kelmoqda. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini qo'shimcha kafolatlashning asosiy shartlaridan biri ishda himoyachining ishtirok etishidir.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 53-moddasida himoyachining juda keng qamrovli huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Himoyachi jinoyat protsessida isbotlashda faol qatnashmog'i lozim. Qonun tomonidan dalillarni to'plash, tekshirish va baho berish majburiyati yuklatilgan yoki bunga huquqli bo'lgan har bir ishtirokchi isbotlash subyektidir. Isbotlash jarayonida himoyachining huquqlari bir muncha cheklangan bo'lsa-da, bu hol uni isbotlash subyekti bo'lish imkoniyatidan mahrum etmaydi. Isbotlashda himoyachi ishtirokining chegaralari va shakli juda muhim. Shubhasiz, agarda ishda ayblanuvchining aybsizligidan darak beradigan yoki ayblilik darajasini kamaytiradigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, himoyachining fikriga ko'ra, ular ishga qo'shib qo'yilishi kerak bo'lsa, himoyachi ushbu ma'lumotlarning borligini ko'rsatib, ularning mazmunini ochib berishi, himoyadagi shaxsning aybsizligi yoki ayblilik darajasini kamaytirish nuqtai nazaridan ularga baho berib, tergov olib borishga mas'ul

bo'lgan organlarni iloji boricha jinoyat ishini to'g'ri va adolatli hal etishga undashi lozim. Ba'zi mualliflarning ta'kidlashicha, bunday hollarda ayblanuvchi foydasiga hal etiladigan holatlar isbot etilmasa, himoyachi o'z vazifasini to'g'ri bajara olmaydi.

Himoyachining vazifasi ayblanuvchining aybsizligini yoki ayblilik darajasi kam ekanini isbotlab berishdan iborat. Ushbu vazifa lozim darajada bajarilmagan taqdirda ayblanuvchining himoyasiga jiddiy zarar yetkazilishi sababli, u o'z himoyasidagi shaxs oldida ma'naviy jihatdan javobgardir.

Himoyachining muhim protsessual huquqlaridan biri dalillarni taqdim etish huquqidir. U himoyasidagi shaxsdan farqli o'laroq, nafaqat jinoyat protsessidagi isbot etish jarayonida qatnashish huquqiga ega, balki unda faol ishtirok etishga majbur. Himoyachi pozitsiyasidan kelib chiqilsa, jinoyat ishi yuzasidan isbotlash predmeti e'lon qilingan aybni inkor etuvchi yoki ayblanuvchining javobgarligini yengillashtiruvchi holatlar hisoblanadi. Ushbu maqsadda ishda ishtirok etishga ruxsat olinganidan boshlab himoyachi dalillar taqdim etishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam to'g'risida"gi Qonuni davlatning fuqaro huquqlarini qonun normalari orqali ta'minlashiga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu qonun doirasida davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishning asosiy tamoyillari sifatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, shuningdek, qonuniylik va xolislik kabi yondashuvlar alohida e'tirof etiladi. [12;] Bundan tashqari, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi 02.09.2019-yildagi O'RQ-562-sonli O'zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasiga ko'ra, Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni kafolatlashi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini kafolatlashi belgilangan. [13; 6-m.]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020-yildagi PF-6012-sonli "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida inson huquqlarini himoya qilishni ta'minlash yuzasidan muhim chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, ushbu chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan bir qancha natijalarga erishish belgilangan. [14; VI b.] Unga ko'ra, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilishning samaradorligi oshishi hamda milliy qonunchilik takomillashishi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish yuzasidan qonun hujjatlaridagi kamchiliklar bartaraf etilishi, xalqaro tashkilotlarning inson huquqlari sohasidagi tavsiyalarini bajarish samaradorligi oshirilishi, inson huquqlari sohasidagi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish orqali mamlakatning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar bo'yicha ko'rsatkichlari yaxshilanishi kabi natijalarga erishish belgilab qo'yilgan.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tomonidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilinishi kafolatlari. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasi bilan Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyati konstitutsiyaviy kafolatga egaligi belgilab berildi. Unga ko'ra, Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldirishi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashishi o'z

aksini topdi. Shuningdek, davlatimiz ushbu milliy institutlarning faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi konstitutsiyamiz bilan belgilab berildi.

1993-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyada Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning maqomiga oid tamoyillar, keng jamoatchilikka "Parij prinsiplari" nomi bilan tanilgan hujjat shaklida tasdiqlandi. Ushbu prinsiplar har bir davlatda tashkil etiladigan Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarining faoliyati uchun asosiy yo'nalishlarni belgilab berdi. Mazkur hujjatda, xususan, Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning mustaqilligi, samaradorligi va inson huquqlarini ilgari surish hamda himoya qilishdagi mas'uliyati aniq ifoda etilgan. Shuningdek, institutlar faoliyatida xolislikni ta'minlash, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni rivojlantirish va inson huquqlari sohasida xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash kabi tamoyillar alohida e'tirof etilgan. Bu prinsiplar davlatlar uchun inson huquqlarini himoya qilish va rivojlantirish bo'yicha mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimi keng qamrovli va samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (biznes-ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi kiradi:

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyati juda izchil tashkil etilgan bo'lib, mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifasini samarali amalga oshirib kelmoqda. Ushbu milliy institutlar faoliyati "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 15.11.2024-yildagi 1002-sonli Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 29.02.2024-yildagi 917-son Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 29.08.2017-yildagi 440-son Qonuni, "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2018-yildagi 4056-son qarori kabi milliy qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar o'z faoliyatini huquqiy va amaliy jihatdan mustaqil ravishda olib borishi kerak. Ular samarali ishlashi uchun yetarli kadrlar, moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi, shuningdek, tegishli davlat va xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilishlari zarur. Shu bilan birga, bu institutlar fuqarolik jamiyati bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Ular har ikki tomon, hukumat va fuqarolik jamiyati o'rtasida mustaqil mavqega ega bo'lib, o'zaro muloqot va hamkorlikni ta'minlaydigan ko'priklar vazifasini bajaradi.

Xalqaro institutlar va konvensiyalar tomonida inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishi kafolatlari. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish dunyo miqyosida xalqaro institutlar va huquqiy mexanizmlar tomonidan kafolatlanadi. Ushbu tizim insoniyatning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash, adolatli va teng huquqli jamiyat qurish maqsadida yaratilgan. Bunda xalqaro konvensiyalar va shartnomalar hamda maxsus tashkilotlar muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida har bir fuqaro O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etish huquqiga ega ekanligi belgilangan. [9; 55-m.] Bundan tashqari aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi o'z huquqiy tizimida xalqaro huquq normalariga doimiy ravishda ustuvorlik berib keladi. Mamlakat qonunchiligida tez-tez uchraydigan "Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida milliy qonunchilikda belgilangan qoidalaridan farqli normalar nazarda tutilgan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi" mazmunidagi qoida bunga yaqqol misol bo'lib xizmat qiladi. Shubhasiz, har bir davlat o'z yurisdiksiyasi doirasida fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va hal etishga intiladi.

Bevosita Inson huquqlari himoya qilish bilan shug'ullanuvchi xalqaro institutlar haqida so'z ketganda, birinchi navbatda ushbu sohada Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'rnini ta'kidlashimiz lozim. Ushbu tashkilot tarkibida BMTga a'zo davlatlarning inson huquqlari bo'yicha faoliyatini kuzatuvchi va tegishli tavsiyalar beruvchi Inson Huquqlari Kengashi(Human Rights Council), Xalqaro konvensiyalarning bajarilishini nazorat qilish uchun tashkil etilgan BMTning Shartnomaviy Qo'mitalari(Masalan, the Committee on the Rights of the Child and the Human Rights Committee), Inson huquqlarini targ'ib qilish va ularni himoya qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshiruvchi BMTning Oliy Komissari Boshqarmasi(Office of the High Commissioner for Human Rights (OHCHR)) mavjud.

Shuningdek, Inson huquqlarini himoya qiluvchi bir qancha mintaqaviy institutlar ham mavjud. Yevropa Inson huquqlari konvensiyasiga asoslangan holda inson huquqlari buzilishlarini ko'rib chiquvchi hamda fuqarolarning huquqlarini sud orqali himoya qiluvchi Yevropa Kengashi(Council of Europe) va Yevropa Inson Huquqlari Sudi(the European Court of Human Rights), Amerika Inson Huquqlari Tizimi(Inter-American Human Rights System), Afrika Inson va Xalqlar Huquqlari Komissiyasi va Sudi(African Commission and Court on Human and Peoples' Rights) ushbu mintaqaviy institutlarga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, Xalqaro konvensiyalar inson huquqlarining huquqiy kafolatlarini belgilovchi eng muhim hujjatlar hisoblanib, ular davlatlar uchun majburiy hamda tavsiyaviy kuchga ega va ularga amal qilish xalqaro huquqiy majburiyat sifatida qaraladi. Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan bo'lib, barcha insonlar uchun asosiy huquqlar va erkinliklarni belgilaydi. Ushbu deklaratsiyaning 2-moddasida har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarurligi belgilangan. [2; 2-m.] Deklaratsiya xalqaro huquqning ahamiyatli qismi sifatida barcha davlatlar uchun huquqiy tamoyillarni o'rnatadi. Deklaratsiyaning huquqiy majburiy kuchi bo'lmasa-da, u boshqa xalqaro shartnomalar va milliy qonunlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning (ICCPR, 1966-yil) 9-moddasi Habeas Corpus tamoyilini xalqaro huquq darajasida mustahkamlaydi va inson erkinligini asossiz cheklashning oldini olishga qaratilgan. Ushbu moddaga ko'ra, har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega va hech kim asossiz hibsga olinishi yoki qamoqda ushlab turilishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, har qanday hibsga olish yoki qamoqda saqlash qonuniy asosga ega bo'lishi va milliy qonunlar doirasida amalga oshirilishi kerakligi, hibsga

olingan shaxs tezkorlik bilan sudyaga yoki qonun bilan belgilangan boshqa mustaqil sud organiga olib kelinishi kerakligi, agar biror shaxs asossiz hibsga olinib yoki ozodlikdan mahrum etilgan bo'lsa, unga qonuniy tartibda kompensatsiya berilishi kafolatlanishi belgilangan. [3; 9-m.]

Shaxs huquq va erkinliklarining daxlsizligi va ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklashga hech kim haqli emasligi, qonunga asoslanmagan holda hibsga olish yoki qamoqda saqlab turish mumkin emasligi hamda har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini sudga shikoyat qilish orqali himoya qilish kafolatlanganligi to'g'risidagi talablarni jinoyat-protsessual qonunida aks ettirilishini ta'minlaydi, hamda Jinoyat-protsessual qonunini takomillashtirib, dastlabki tergovga sud nazoratini olib kirishga imkoniyat yaratadi. Sud nazoratining zamirida esa, xolislik, tortishuv, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza qilish kabi muhim masalalar o'z ifodasini topgan. Hozirgi kunda dunyoning aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini cheklash yoki ulardan mahrum qilish bilan bog'liq majburlov choralarini qo'llashga sanksiya berish sudlar vakolatida bo'lib, u uzoq tarixga ega.

“Habeas Corpus Act” 1679-yil 26-mayda qabul qilingan bo'lib, qamoqqa olish ustidan shikoyat qilish va noqonuniy ushlab turilgan shaxsni darhol ozod qilishning birinchi klassik namunasi hisoblanadi. “Habeas Corpus Act” insoniyat tarixida o'zboshimchalik bilan hibsga olishni cheklagan birinchi hujjatdir. Unda “Hech bir ozod, erkin fuqaro sud qarorisiz ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, mulkidan mahrum qilinishi, qonundan tashqari deb e'lon qilinishi, quvg'inga olinishi mumkin emas” deyiladi. Jinoyat ishlari bo'yicha “Habeas Corpus Act” quyidagicha tartibda amalga oshiriladi. Har bir qamoqqa olingan ayblanuvchi o'zini noto'g'ri hibsga olindi deb hisoblasa, shaxsan o'zi yoki himoyachisi orqali lord-kanslarga shikoyat qilishga haqli bo'lgan. Lord Habeas Corpus buyrug'ini berish hamda uni tasdiqlaydigan muhrni saqlash huquqiga ega bo'lgan shaxs hisoblangan. Murojaatni olgan sudya darhol ishga kirishib, qamoqqa olishning qonuniyligini tekshirgan. Agar qamoqqa olish noqonuniy amalga oshirilgan bo'lsa, shaxs darhol ozod qilingan. Angliya yuridik adabiyotlarida “Habeas Corpus Act” shaxs huquq va erkinligini himoya qilishning oliy darajadagi kafolati va inglizlarning milliy g'ururi” deb ta'riflanadi. Hozirgi kunda ishni sudga qadar yuritishda taraflar o'z huquqlaridan to'laqonli foydalanishlari va protsessual majburiyatlarini bajarishlari uchun bu jarayonda xolislik hamda beg'arazlikni ta'minlovchi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari tarkibida tergov sudyasi lavozimini joriy etish masalasi dolzarb bo'lib kelmoqda. Tergov sudyasi bo'yicha qonun loyihasi muhokama qilinmoqda. Tez orada qonun qabul qilinishi bilan, tergov sudyalari samarali faoliyat olib boradilar. Tergov sudyasi tomonidan sud nazoratining amalga oshirilishi, ishni sudga qadar yuritishda haqiqiy tortishuv muhitini yaratadi, sababi, himoyachining iltimosnomasini endi ishni sudga qadar yurituvchi organlar hal qilmaydi, balki bu orqali kuchlar muvozanati yaratiladi. Bu o'z navbatida, jinoyat protsessida himoyachining mavqeyi oshishiga, uning isbotlash jarayonida qatnashish huquqini real ta'minlashga xizmat qiladi. Sababi, dalillarni topish va mustahkamlash yuzasidan asosli iltimosnomasi rad qilingan hollarda, tergov sudyasi unga mazkur huquqidan foydalanish imkonini kafolatlaydi, shu bilan birga uning keyinchalik ishni mazmunan ko'rish majburiyatidan xalos etilishi uning ichki mustaqilligini ta'minlaydi, ya'ni uning qabul qilgan qaroriga kelgusida bog'lanib qolishining oldi olinadi.

Shu o'rinda tergov sudyasining kimligi va uning jinoyat protsessidagi maqomiga to'xtalib o'tish o'rinlidir. Qozog'iston Respublikasi JPKning 54-moddasi 3-qismiga muvofiq, tergov sudyasi – tegishli barcha instansiya sudining raisi tomonidan tayinlanadigan, sudga qadar tergovga jalb qilingan shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlanishi ustidan sud nazoratini amalga oshirishga vakolatli sudyadir. [16; 54-m.] B.Mo'minov tergov sudyasiga quyidagicha ta'rif beradi: "tergov sudyasi – ishni sudga qadar yuritish bosqichida, ishni sudga qadar yuritish uchun mas'ul organlarning iltimosnomalari va manfaatdor shaxslarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va hal qilish orqali shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlanishi ustidan sud nazoratini amalga oshirishga vakolatli sudyadir". [17; 249-m.] S.Adilov esa tergov sudyasi ishni sudga qadar yuritish jarayonida kelib chiqadigan masalalar yuzasidan xolis va mustaqil hakam bo'lishi mumkinligini, chunki u keyingi sud instansiyalarida odil sudlovni amalga oshirishdan chetlatilgan bo'lishini e'tirof etadi. [18; 166-b.]

Tergov sudyalari tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yuritish bosqichida protsessual qarorlarga sanksiya berish va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish masalalarini qonunchilikda belgilash maqsadida tergov sudylarining vakolatlari jumlasiga kiritilgan ishlarni ko'rib chiqish asoslari hamda tartibini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Tergov sudyasi yakka o'zi ish tutib, sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi.

Tergov sudyasining vakolatlari jumlasiga: qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatgacha uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; murdani ekskumatsiya qilish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; prokurorning guvoh va jabrlanuvchining(fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomalarini ko'rib chiqish; tintuv o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish; mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish kiradi.

"Tergov sudyasi institutining kiritilishi ayblov va himoya tarafi faoliyati, protsessual huquqlaridagi o'zaro mutanosiblikning ta'minlanishiga xizmat qiladi va sud nazoratini amalga oshirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi", degan fikrlarida ham o'z aksini topgan. Tergov sudyasi institutiga oid ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi o'rganilganda, Germaniya, Belgiya, Gretsiya, Iroq, Ispaniya, Niderlandiya, Xorvatiya va ayniqsa, Fransiyada ushbu institut o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirib kelayotganligi aniqlandi. Xususan, Germaniyada tergov sudyasi (uchastka sudyasi) jinoyat protsessining o'ta muhim figurasi bo'lib, uning faoliyati Germaniya advokatlari uchun katta imkoniyat hisoblanadi. Germaniyada tergov

sudyasi qamoqqa olish, tintuv o'tkazish, DNK tahlillarini o'tkazish, telefon-so'zlashuv qurilmalarini eshitish kabi prokuror murojaatlari yuzasidan qaror qabul qilish mas'uliyatini o'ziga oladi. Tergov sudyasi faoliyatining muhim ahamiyat kasb etishi o'z o'rnida advokat faoliyatiga ham ta'sir etadi. U politsiya va prokuratura harakatlarini ko'rib chiqadi hamda ushbu organlar faoliyatining muvofiqligi va qonuniyligini tekshiradi. Shuningdek, politsiya harakatlarini cheklaydi, bu esa advokatlar uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ish tergov sudyasi qo'lida bo'lgan vaqtda u himoyachi ish materiallari bilan tanishib chiqmaguncha qaror qabul qilmaydi, bu esa faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi va himoyachiga ish yuzasidan prokuraturada mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar bilan ertaroq tanishish imkoniyatini beradi. Natijada, advokat himoyani to'g'ri va samarali amalga oshirishga erishadi. Shu orqali taraflar teng imkoniyatlarda harakatlanishi mumkin bo'ladi. Hozirda MDH va boshqa davlatlarda ham tergov sudyasi instituti joriy etilmoqda, xususan, 2002-yilda Litva (JPK 158-m.)da, 2003-yilda Moldaviya (JPK 41-m.) va Estoniya (JPK 21-m.)da, 2005-yilda Latviya (JPK 210-m.)da, 2013-yilda Ukraina (JPK 3-m.)da, 2015-yilda esa Qozog'iston (JPK 55-m.), Gruziya (JPK 20-m.) va Qirg'iziston (JPK 31-m.) da ushbu institut joriy etildi. Armanistonda esa tergov sudyasi institutini joriy etish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICESCR, 1966-yil), Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW, 1979-yil), Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (CRC, 1989-yil), Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (ICERD, 1965-yil), Qiynoqlarga qarshi konvensiya (CAT, 1984-yil), Xalqaro Jinoyat Sudi (ICC) Statuti (Rim Statuti, 1998-yil) [5] kabi Xalqaro konvensiya va hujjatlar butun dunyoda insonlarning huquq va erkinliklarni himoya qilishning mustahkam asosini belgilab bergan.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish sohasida qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazani mustahkamlash, xalqaro inson huquqlari standartlarini milliy qonunchilikka tatbiq etish, xalqaro majburiyatlarni bajarish hamda bu borada xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning kafolatlari yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda ushbu tizimni takomillashtirish uchun bir qancha takliflarni ilgari surmoqchimiz. Birinchidan, BMT va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish, shuningdek, Yevropa Ittifoqi, YEXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish orqali O'zbekiston global miqyosda inson huquqlarini himoya qilishda o'z o'rnini mustahkamlaydi. Bu davlatning xalqaro huquqiy doirada o'z majburiyatlarini yanada yaxshiroq bajarishiga imkon yaratadi va fuqarolik jamiyatining bu jarayonda muhim rol o'ynashini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, qiynoqning oldini olish bo'yicha institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, ayniqsa, BMTning Qiynoqlarga qarshi konvensiyasining Fakultativ protokoliga qo'shilish, davlatning xalqaro miqyosda inson huquqlarini hurmat qilish va qiynoqlarga qarshi kurashishda faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha 97-sonli konvensiyasini ratifikatsiya qilish O'zbekistonning chet elda mehnat faoliyatini olib boruvchi fuqarolarining huquq va

erkinliklarini himoya qilish uchun juda muhim qadam bo'ladi. Shunday qilib, inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi islohotlarni davom ettirish O'zbekistonning global miqyosdagi mavqeyini mustahkamlashda hal qiluvchi omillardan biri bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Alston, P., & Goodman, R. (2013). International Human Rights: The Successor to International Human Rights in Context (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (1948). Inson huquqlari bo'yicha Umumjahon Deklaratsiyasi (Universal Declaration of Human Rights). URL: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (1966). Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (International Covenant on Civil and Political Rights). URL: https://treaties.un.org/doc/Treaties/1976/03/19760323%2003-12%20AM/Ch_IV_04.pdf.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (1966). Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights). URL: https://treaties.un.org/doc/Treaties/1976/01/19760103%2004-05%20AM/Ch_IV_03.pdf.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Xalqaro shartnomalar va konvensiyalar to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar bazasi. URL: <https://treaties.un.org>.
6. F.Yusupova. Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 64 b. URL: https://drive.google.com/file/d/10rgXUn_T0ruCF-2hIW_Q0YjTX9XtwiiV/view.
7. Muratayev, S.A. Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 104 b. URL: <https://streetlaw.uz/file/constitution/Inson%20hamda%20fuqaroning%20huquq%20va%20erkinliklari%20kafolatlari%20SH.pdf>.
8. Nowak, M. (2005). UN Covenant on Civil and Political Rights: CCPR Commentary (2nd ed.). Kehl am Rhein: N.P. Engel Verlag.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445362>.
10. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. URL: <https://lex.uz/docs/-104720>.
11. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi 07.01.2008-yil 139-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-1297315>.
12. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida" O'RQ-848. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6502543>.
13. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 02.09.2019-yildagi O'RQ-562-sonli qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-4494849#-4495950>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020-yildagi PF-6012-sonli "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. URL: <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/inson-uulari-bjicha-zbekiston-respublikasining-millij-strategijasi>.
15. Tomuschat, C. (2008). Human Rights: Between Idealism and Realism (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
16. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 2014-yil 4-iyul (2020-yil 16-noyabr holatiga ko'ra). URL: <http://base.spinform.ru>.
17. Mo'minov B.A. Jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish ustidan sud nazorati. Yuridik fanlari doktori ... dissertatsiya. Toshkent, 2020. 249 bet.
18. S.A.Adilov Qozog'iston Respublikasi jinoyat jarayonida tergov sudyasining huquqiy maqomi. Yuridik fanlari nomzodi ... dissertatsiya. Moskva, 2018. 166 bet.

19. Choriyeva.D.M. Ishni sudga qadar yuritishda himoya huquqlarini kengaytirish masalalari. Toshkent, 2021. 257-bet.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).